

## XALQARO IQTISODIY MUNOSABATLARDA ESG TUSHUNCHASI VA O'ZARO BOG'LIQLIGI.

*Xasanov Ahmad Shodiyorovich*

*Samarqand Davlat Universiteti Kattaqo'rg'on filiali, o'qituvchi, asistent*

*Boliyev Davron Rahmonqul o'g'li*

*Samarqand Davlat Universiteti Kattaqo'rg'on filiali, talabasi*

*Berdiqulov Murodjon Bobir o'g'li*

*Samarqand Davlat Universiteti Kattaqo'rg'on filiali, talabasi*

### **Annotatsiya.**

Xalqaro iqtisodiy munosabatlarda ESG bugungi kunda investorlarga va kompaniyaga qaror qabul qilishda yordam beradi, chunki u nafaqat moliyaviy ko'rsatkichlarni, balki barqarorlik va mas'uliyatni ham hisobga oladi. Shu sababli, ESG ko'rsatkichlari yuqori bo'lgan kompaniyalar ko'proq investitsiyalar va ijobiy obro' qozonadi.

**Kalit so'zlar:** environmental, social, governance, xalqaro iqtisodiy munosabatlar,

ESG (Environmental, Social, and Governance) — bu iqtisodiyot va biznesda keng qo'llaniladigan tushuncha. ESGning asosiy maqsadi kompaniyalarning barqaror rivojlanishiga erishish uchun ekologik, ijtimoiy va boshqaruv masalalariga e'tibor qaratishdir.

**Environmental (Ekologik):** Bu jihat kompaniyaning atrof-muhitga ta'sirini baholashni o'z ichiga oladi. Masalan, energiya samaradorligi, chiqindilarni kamaytirish, karbon izini kamaytirish va qayta tiklanadigan energiya manbalaridan foydalanish.

**Social (Ijtimoiy):** Bu qism kompaniyaning ijtimoiy mas'uliyatini, xodimlar va mijozlarga munosabatini, shuningdek, jamiyatga ta'sirini o'z ichiga oladi. Xodimlar xavfsizligi, teng imkoniyatlar, mehnat huquqlari va jamiyatni qo'llab-quvvatlash kabi omillar baholanadi.

**Governance (Boshqaruv):** Bu qism kompaniyaning boshqaruv tizimi va rahbariyatning shaffofligi hamda halolligini o'z ichiga oladi. Korporativ boshqaruv, aksiyadorlar huquqlari, korrupsiyaga qarshi kurash va moliyaviy shaffoflik kabi masalalar baholanadi.

**Jahon iqtisodiyotidaning roli va ahamiyati.** Jahon iqtisodiyotida global iqtisodiy xavfsizlik tarmog'i sifatida ishlaydi va xalqaro moliya tizimining barqarorligini ta'minlashda katta rol o'ynaydi. Jahon iqtisodiyotida iqtisodiy inqirozlar, valyuta beqarorligi va savdo muvozanatini saqlashda xalqaro hamjamiyatga

yordam beradi. Shu bilan birga, jahon iqtisodiyotida ESG tamoyillariga mos ravishda barqarorlik, ijtimoiy tenglik va ekologik mas'uliyatni ham qo'llab-quvvatlaydi.

Jahon iqtisodiyotida ning ishlash prinsipi davlatlarning o'zaro yordam tamoyiliga asoslangan bo'lib, a'zo davlatlar badal to'lovlari hisobidan moliyalashtiriladi. Bu esa jahon iqtisodiyotida ning turli moliyaviy qiyinchiliklarga moslashuvchanlik bilan javob berishini ta'minlaydi

Jahon iqtisodiyotida ning ESG bilan bog'liq yondashuvi, ayniqsa, rivojlanayotgan mamlakatlar uchun katta ahamiyatga ega, chunki bu mezonlar orqali uzoq muddatli iqtisodiy barqarorlik va rivojlanishga erishish imkoniyati oshadi. Shuningdek, xalqaro investitsiyalar ham ESG omillariga mos keladigan mamlakatlarga ko'proq yo'naltirilmoqda. Shu sababli, jahon iqtisodiyotida ESG masalalariga e'tibor qaratib, mamlakatlarga keng ko'lamda maslahat va moliyaviy yordam ko'rsatadi

**Barqaror iqtisodiy o'sishga erishadi:** XVJning ESG yondashuvi bilan harakat qiluvchi davlatlar uzoq muddatli iqtisodiy barqarorlikka erishadi va global moliya tizimida o'z mavqeini mustahkamlaydi

**Kredit reytinglarini yaxshilaydi:** ESG omillari yuqori davlatlar yuqori kredit reytinglariga ega bo'lishadi, bu esa davlatlar uchun xalqaro bozorlardan qulay sharoitda qarz olish imkoniyatini beradi

**Xalqaro investitsiyalarni jalb qiladi:** ESG mezonlariga mos keladigan davlatlar xorijiy investorlar uchun jozibador bo'lib, barqarorlik va iqtisodiy o'sish imkoniyatlariga ega bo'ladi. ESG ko'rsatkichlari yuqori davlatlar xorijiy kompaniyalar uchun qulay muhit yaratadi.

Mamlakatlarda iqtisodiy siyosat orqali iqlim o'zgarishining ta'sirini kamaytirishga qaratilgan. Iqlim o'zgarishi qashshoq davlatlar va rivojlanayotgan mamlakatlarda iqtisodiy o'sishga bevosita ta'sir qiladigan xavflarni keltirib chiqaradi. Jahon iqtisodiyotida ekologik mezonlar bo'yicha quyidagicha yondashuvlarni qo'llaydi: Iqlim moliyalashtirishni qo'llab-quvvatlash: jahon iqtisodiyotida rivojlanayotgan mamlakatlarga iqlim o'zgarishiga moslashish va uglerod chiqindilarini kamaytirishga yordam berish uchun moliyalashtirish manbalarini jalb qilishda yordam beradi. Energiya samaradorligi va yashil energiya: jahon iqtisodiyotida davlatlarni qayta tiklanuvchi energiya manbalaridan foydalanishga undaydi va ularning iqtisodiy siyosatiga uglerod chiqindilarini kamaytirishga oid tavsiyalar beradi.

Atrof-muhitga doir xavf omillarini baholash: jahon iqtisodiyotida tomonidan iqlim xavfi va boshqa ekologik tahdidlarni baholash orqali davlatlar uchun kelajakdagi iqtisodiy yo'qotishlarni kamaytirish siyosatlari ishlab chiqiladi. Jahon iqtisodiyotidaning ekologik barqarorlik masalalariga e'tibor qaratishi sababli, rivojlanayotgan davlatlar uchun yashil obligatsiyalar va boshqa ekologik moliyalashtirish vositalari ko'paymoqda. Bu davlatlar ESG mezonlari orqali xalqaro investorlar uchun ham barqaror va jozibador bo'lib qoladi. Jahon iqtisodiyotidaning

ijtimoiy masalalarga e'tibor qaratishi davlatlardagi inson kapitalining rivojlanishiga yordam beradi. Bu davlatlar uchun xalqaro reytinglarda yuqori ESG ko'rsatkichlarini olishga va investitsiyalarni jalb qilishga zamin yaratadi.

Bu tamoyillar davlatlarga ESG ko'rsatkichlari bo'yicha yuqori reytinglarga ega bo'lish imkoniyatini beradi va xalqaro investitsiyalarni jalb qilish imkoniyatlarini kengaytiradi. Jahon iqtisodiyotidaning ESG mezonlariga e'tibor qaratishi iqtisodiy barqarorlik va global miqyosda barqaror rivojlanish uchun yangi imkoniyatlar yaratmoqda. Shuningdek, ESG mezonlariga muvofiq harakat qiluvchi davlatlar xalqaro moliya bozorlarida jozibador hisoblanadi. Shu sababli, jahon iqtisodiyotida ESG mezonlariga muvofiq davlatlarga yordam berish orqali global iqtisodiy tizimda barqarorlik va ijtimoiy adolatni ta'minlashni ko'zlaydi.

### XULOSA

Jahon iqtisodiyotidaning ESG ko'rsatkichlariga oid yondashuvi orqali davlatlar iqtisodiy barqarorlikni oshirish va xalqaro investitsiya muhitini yaxshilashga erishadilar. Shu bilan birga, xalqaro ESG talablari asosida ishonchli tizimlar yaratib, iqtisodiy siyosatni ijtimoiy va ekologik mas'uliyat tamoyillariga muvofiq amalga oshiradilar.

### Foydalanilgan adabiyotlar va internet sahifalari:

1. O'zbekiston Respublikasida valyuta operatsiyalari quyidagi qonun hujjatlari bilan tartibga solinadi: O'zbekiston Respublikasining 2019-yil 22-oktabrdagi "Valyutani tartibga solish to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonuniga o'zgartish va qo'shimchalar kiritish haqida"gi 573-sonli Qonuni (keyingi o'rinlarda "Valyutani tartibga solish to'g'risida"gi Qonun);
2. O'zbekiston Respublikasining 2000 yil 26 maydagi 77-II-son "O'zbekiston Respublikasining tashqi iqtisodiy faoliyat to'g'risida"gi Qonuniga o'zgartish va qo'shimchalar kiritish haqida"gi Qonuni (keyingi o'rinlarda "Tashqi iqtisodiy faoliyat to'g'risida"gi Qonun tashqi iqtisodiy faoliyat»)
3. **Xalqaro iqtisodiy munosabatlar B.A. Islamov., R.X. Shodiyev, N.S. Ismailova, Z.T. Shodiyeva, G'L. Yoziyev 2021-yil**
4. Abdullayeva.Sh "Pul,kredit va banklar" darslik , Toshkent 2003-yil
5. <https://arxiv.uz>
6. <https://wikipediya.uz>
7. <https://fayllar.org>